

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI

O'zbek tilshunosligi kafedrası

O'zbek filologiyasi yo'nalishi III kurs "D" guruh talabasi

Nargiza Agmadjonovani tayyorlagan

REFERATI

Mavzu: So'z gap

Ish rahbari:

katta o'qituvchi D. Matyoqibovav

ANDIJON – 2016

Режа.

I.Кириш. Синтаксис haqida.

II.Асосий қисм:

1.Гап va uning турлари.

2. So'z gaplar semantikasi.

3. So'z gaplarning ulubiy xususiyatlari.

III.Хулоса.

Prezidentimiz I.A.Karimovning “Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish – oliy saodatdir” deb nomlangan ma’ruzasida shunday deyiladi: “Bu dunyoda faqatgina o’zini hurmat qiladigan, o’z qadriga yetadigan, kuchli va muvaffaqiyatga erishgan xalq va davlatgina tan olinadi. Ya’ni o’z mehnati, aql-zakovati va salohiyati bilan o’zini-o’zi boqadigan, o’zini himoya qilishga, kelajagini o’z qo’li bilan qurishga qodir bo’lgan xalqni jahon ahli e’tirof etadi. Barchamiz, avvalo, yoshlarimiz bu oddiy haqiqatni hech qachon unutmasligimiz zarur”.

Darhaqiqat, bir mamlakatni atrofdagilar hurmat qilishi uchun o’sha xalq, avvalo, o’zini hurmat qilishi zarur. O’z aqlu-zakovati bilan muvaffaqiyatlarga erishish esa o’sha xalqning o’tmishini, ilmiy me’rosini puxta o’rganishni taqozo qiladi. Chunki har qanday xalq ilm orqali o’tmishdagi muvaffaqiyatga erishilgan tajribalardan xabardor bo’lishi, yo’l qo’yilgan xatolardan kerakli xulosalar chiqarishi mumkin. Shu ma’noda bizning mazkur kichik tadqiqotimiz ham mamlakatimizdagi ilm-fan rivoji yo’lida, ilmiy me’rosimizni tadqiq qilish yo’lidagi bir qadam deyishimiz mumkin.

Hozirgi kunda tilning sistema ekanligi deyarli barcha tilshunoslar tomonidan e’tirof etilmoqda. Shuning uchun ham keyingi yillarda barcha fanlarda amal qilingani kabi tilshunoslikda ham sistemaviy tadqiqotlarga e’tibor berilmoqda.

Tilshunoslik tarixida gap asosan shakliy nuqtai nazaridan o’rganib kelindi va ayrim xollardagina uning mazmuniy tomoniga e’tibor qaratildi.

Gap shakliy jihatdan muayyan elementlarga bo’linadigan va ayni paytda, ma’lum elementlarning o’zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida talqin etildi. Ko’rinadiki, an’anaviy tilshunoslikda ham intuitiv holatda bo’lsa-da, gapning sistemaviy tabiati e’tirof etiladi. Lekin butunlikdan tashkil topgan elementlar o’rtasidagi munosbatlarga yetarli e’tibor berilmagan. Sintaksisni o’rganish tarixi o’zining ko’p asrlik an’anasiga ega

bo‘lishiga qaramasdan, uning o‘rganish predmeti masalasida hanuzgacha xilma-xil fikrlar mavjud.

Gap grammatik jihatdan tashkil topgan, tarkibidagi elementlari bir yaxlit holga kelgan, semantik intonatsion butunlikka ega bo‘lgan sintaktik birlik, u fikr bildirish, xabar berish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, emotsiyalarni his-tuyg‘ularni bildirish uchun ham qo‘llanadi.

Nutq gaplardan iborat bo‘ladi. Gap nutqning nisbiy tugallangan fikr ifodalaydigan bo‘lagidir. Har bir tugallangan fikr so‘zlar yig‘indisi yoki ayrim bir so‘z bilan ifodalanadi. Gap, odatda, so‘zlarning grammatik qonun – qoidalar asosida birikuvi bilan hosil bo‘ladi. So‘zlarning birikuvidan tuzilgan bu konstruksiya nutqning fikr anglatishdagi eng sodda qismidir.

Gapning tugallangan fikr ifodalash uning semantik tomonidir. Lekin bu fikriy tugallik nisbiydir. Chunki ayrim gapdagi fikrning to‘liq ochilishi nutq ichida bo‘ladi. Masalan, Talabalar norozi bo‘ldilar gapidagi fikrni yana ham konkretlashtirish bundan ko‘ra kengroq kontekst yordami bilan amalga oshadi. (Shu keyingi kontekst avalgi gapga nisbatan tugalroq bo‘ladi)

Gapdagi so‘zlarning o‘zaro semantik munosabatga kirishi, o‘sha so‘zlar bilan ifodalangan tushunchalarning munosabatini, ob’ektiv borliqdagi predmet, holatlarning aloqasini bildiradi (predikativ aloqa yo‘li bilan):

- a) predmet bilan harakat munosabati ot+fe‘l: Ot kishnadi;
- b) predmet bilan belgi munosabati ot+sifat: Suv tiniq;
- v) predmet bilan predmet munosabati ot+ot: Kamtar-parranda.¹

Bu aloqalar natijasida gapning mundarijasi tashkil topadi va ifodalanadi.

Gapning semantik qurilishini semantik sintaksis o‘rganadi. Traditsion sintaktik nazariyalarda, asosan, gapning formal qurilishi o‘rganildi. Faqat ayrim o‘rinlardagina (gapning kommunikativ maqsadiga ko‘ra turlarini belgilashda; ikkinchi darajali bo‘laklarning ichki klassifikatsiyasida, masalan: holning o‘rin, payt, sabab, maqsad va boshqa turlarga bo‘linishida, aniqlovchilarning sifatlovchi,

¹ Гуломов А., Асқаров М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.:Ўқитувчи, 1987. 30-бет.

qaratqich, izohlovchilarga ajratilishida va boshqalar) semantikasiga murojaat qilindi. Gapning ma'no xususiyati va tarkibi ham, gapning semantik turlari, gapning formal va semantik strukturalarining o'zaro munosabati ham yaqin yillargacha maxsus o'rganish ob'ekti bo'lmay keldi.

Gap haqidagi ta'limot uzoq tarixga ega. Tilshunoslik fanida gap va uning tabiatiga doir turli fikrlar uchramiz. Adabiyotlarda qayd etilishicha, hozirgi kunda gapning 300 ga yaqin ta'rifi ma'lum. Shu faktning o'ziyoq gap tushunchasi nafaqat murakkab va ziddiyatli ekanidan dalolat beradi.

Gap ma'lum fikrni ifodalash bilan birga, har xil his-tuyg'ularni ham ifodalaydi. Biroq bu emotsiyalar fikr bilan bog'liq holda ro'y beradi. Demak, gap intellektual (aqliy) holatni ham ko'rsatadi.

Gapning xarakterli belgilari predikativlik va intonatsiya ekanligi bizga ma'lum. Bu belgilar gap tushunchasining asosi, gapning shakllantirish vositasidir.

Har bir gapning reallik bilan bog'liqligi haqida biror fikr, xabar bayon qilish gap mundarijasining voqelik bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bu hodisa-gap mundarijasining real voqelik bilan aloqadorlik hodisasi predikatsiya sanaladi.

Gapni predikatsiya shakllantiradi. Bu grammatik kategoriya-umuman gapga xos xususiyat. Predikativlikni kesim ko'rsatadi. (Bordi. Student edim): kesim umumiy predikativlik ma'nosini konkret modallik, zamon, shaxs kategoriyalari orqali ifodalaydi. Predikativlikni shakllantirishda intonatsiyaning ham ishtiroki bor: intonatsiya gapga xos bo'lgan universal vositadir. Anglashiladiki, predikativlikni ifodalash gapning paradigmasi-predikativlikni bildiruvchi butun formalari sistemasi bilan bog'liq.

Gap fikrni ifodalaydi, ma'lum maqsadni bayon qiladi. Bu hodisa, birinchidan, shu gapdagi fikrning borliqqa munosabati, ikkinchidan, so'zlovchining sub'ektiv munosabati – modallik (reallik, gumon, taxmin, istak kabilar) bilan, zamon va shaxs bilan bog'lanadi.

Gapning kommunikativ kategoriyasi gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini ham o'z ichiga oladi. Gapning kommunikativ maqsadiga qo'ra nutqiy aloqa turiga asoslanadi. So'zlovchi o'zining maqsadiga muvofiq keladigan gap shakllarini tanlaydi. Shunga ko'ra, gaplar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) darak gaplar, 2) so'roq gaplar, 3) buyruq gaplar, 4) istak gaplar. Har qanday gapning uyushtiruvchi markazi kesim bo'lganligidan gapning ifoda maqsadiga ko'ra modellar ham kesim asosida ajratiladi.

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra modellar tizimi kategoriyani hosil qiladi.

Invariant ma'no va invariant shakl asosidagi bu to'rt xil gap uch belgi asosida bir-biridan farq qiladi: a) I shaxs axboroti, II shaxsni harakatga qo'zg'ash, III modallik.

So'roq gap axborot bildirmaydi, lekin axborot ifodalash bilan aloqadorlik so'roq gapni darak va istak gaplar bilan yaqinlashtiradi.

Darak va so'roq gaplar modeli modallik ifodalashga befarq bo'lsa, buyruq va istak gaplar modallik bilan bog'langan. Buyruq gapning kesimi buyruq maylidagi fe'llardan, istak gapning kesimi esa istak maylidagi fe'llardan ifodalanadi.

Gaplar ifoda maqsadiga ko'ra darak gap, so'roq gap, buyruq gaplarga bo'linadi. Kuzatilgan maqsadga qarab, nutq uslubining barchasida foydalaniladi. Bu gaplarning har biri nutq uslublarida qo'llanishiga qarab, ayrim o'ziga hos belgilarga ega bo'ladi. Darak, buyruq, so'roq va undov gaplar yig'iq va yoyiq, sodda yoki qo'shma gap shaklida bo'lishlari mumkin. Har bir gap turi o'ziga hos grammatik belgilarga ega bo'lish bilan birga, har hil mazmunni ham ifodalaydi. turli mazmunning ifodalanishida, asosan, intonatsiya va ayrim so'z hamda qo'shimchalar xizmat qiladi.

So'roq gaplarda so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan biror narsa, harakat-holat haqida ma'lumot olish ko'zda tutiladi. So'roq gaplarda suhbatdoshning o'z fikrini anglashiga yoki ifodalayotgan fikrga bo'lgan munosabatini bildirishga chaqiriladi.¹

¹ O'zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. –T., 1976. 103-bet.

Masalan: Qizim, bugun mehmonlarni Sultonxonlarnikiga olib chiqasan-a? (ch.) Bu gapda so'zlovchi o'ziga noma'lum bo'lgan holat –a so'roq yuklamasi orqali ifodalangan. Bu so'roq gap javob talab qilgan. Bu gap orqali mehmonlarni olib chiqishlik yoki olib chiqmaslik nazarda tutilyapti.

So'roq gaplarda suhbatdosh so'zlovchining so'rog'iga javob berishga, unga o'z munosabatini bildirishga undaladi. Yuqoridagi gapda ham so'zlovchining so'rog'iga javob berishga undalgan. Bundan tashqari, so'roq gaplar so'roq yo'li bilan bildirilgan hayrat, taajjub, hayajon, buyruq, gumon kabi ma'nolarni ifodalaydi. Asarda bunday ma'nolar bilan ifodalangan gaplar ko'plab uchraydi. Masalan: Mehmonlar shu yerda? Gapida taajjub ma'nosi ifodalangan. Bu so'roq gapdagi taajjub so'zlovchi tomonidan kuchli ifodalangan. Mehmonlar shu yerdaligini unga, ya'ni so'zlovchi uchun kutilmagan hol bo'lgan.

So'roq gaplar kutiladigan javob xarakteriga ko'ra bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga tasdiq yoki inkor talab qiladigan so'roq gaplar kiradi. Bunda so'roq gap olmoshlarsiz, intonatsiya yoki so'roq yuklamalari orqali hosil qilinadi, gap tarkibida so'zlovchi uchun noma'lum bo'lgan narsa, voqea-hodisa nomi uchraydi. Bunday so'roq gaplar –mi, -chi, -a, so'roq yuklamalari orqali hosil bo'ladi. Masalan: ha, aytganchi Abdusamat o'z qishlog'iga yangi tartib maktabi ochdi-mi? (Sh.) Bu gapdagi so'roq gap tasdiq yoki inkor talab qilyapti. Bu gapda Abdusamat o'z qishlog'iga yangi maktab ochdimi yoki ochmadimi so'zlovchi uchun noma'lum, shuning uchun tasdiq yoki inkor talab qiladi. –mi so'roq yuklamasi orqali hosil bo'lgan. –mi so'roq yuklamasi orqali hosil bo'lgan gaplarda so'roq ma'nosi u qadar kuchli bo'lmaydi. –a, -chi, so'roq yuklamalari orqali hosil bo'lgan gaplarda so'roq ma'nosi kuchli bo'ladi. Masalan, Kap-katta to'ng'izday bo'lib qolibsanu, sharmu hayo qilmasdan, nomahram bor hovliga qaraysan-a? (Ch.). Cho'lponning so'z boyligi, so'z qo'llashdagi mahorati yana bir bor yuqoridagi gapdan ham ko'rinib turibdi. Bu

gapdagi bir bolani to'ng'izga ohshatilishi, yozuvchining mahorati yuksak darajada ekanligidan dalolatdir.

So'roq gaplarning ikkinchi guruhida so'zlovchi uchun uni qiziqtirgan fikrning biror elementi noma'lum bo'ladi. So'zlovchi harakatini bajaruvchi shxsn belgisi, o'rni, payti, sababi, maqsadini bilishni istaydi. Bu vaqtda so'zlovchi uchum noma'lum bo'lgan narsaning nomi gapda atalmasdan, unga ishora qilinadi, gap tarkibida so'roq olmoshlari kiritiladi: Sultonxon o'zi bo'lmagandan keyin kim chaqiradi? U hovlida undan boshqa odamshavanda kim bor? (Ch.) Bu gapda so'roq ma'nosi kim so'roq olmoshi bilan ifodalangan. Bu gapda so'zlovchi harakatni bajaruvchi shaxsni yo'qligiga ishora qilgan va shu orqali so'zlovchi fikr bildirgan.

Badiiy adabiyotda nutq ta'sirchanligini oshirish uchun so'roq gaplardan keng foydalaniladi. Asarda ham qahramonlarning o'ziga xos nutqlarini oshirish uchun so'roq gaplar keng qo'llanilgan: O'roqjon, - dedi, - otam avrotta o'tirib qoldi shekilli, shunaqa odati bor, endiyoq kirib kelsa kerak. Hafa bo'lmang-a? (Ch.) Mana shu gap orqali Zebining harakterini bilib olish mumkin, Cho'lpon Zebini shu qadar tariflaydiki, Zebi haqidagi tasavvurlarni bilib olsa bo'ladi. " hafa bo'lmang – a?" so'roq gapi orqali Zebining butun holatini gavdalandirgan. Shu gap orqali Zebining nutqini ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

So'roq gaplarda suhbatdoshning o'z fikrini anglatishga yoki ifodalanayotgan fikrga bo'lgan munosabatini bildirishga chaqiriladi.¹ So'roq gaplar so'roq yuklamalari (-a, -da, - ku, -mi, -chi), so'roq olmoshlari (kim, nima, qanday, qayer), so'roq intonatsiyasi kabi grammatik vositalar yordami bilan tuziladi.

So'roq yuklamalari -a, -da, - ku, nahotki yordami bilan tuzilgan so'roq gaplarda

So'roq intonatsiyasining roli katta bo'ladi; -mi, -chi yuklamalarida esa intonatsiya u qadar kuchli bo'lmaydi . buni yuqoridagi gaplarda ham ko'rib o'tdik. Masalan, Otamdan darak yo'q-ku? –deb so'radi onasidan. (Ch.) –ku so'roq yuklamasi yordami bilan tuzilgan bu gap sof so'roq ma'nosiga ifodalangan.

¹ O'zbek tili grammatikasi. Sintaksis. – T., - b. 103.

Asarda so'roq yuklamalaridan foydalanilgan holda tuzilgan so'roq gaplarning ajoyib namunalarini ko'rishimiz mumkin. Bu so'roq gaplar badiiy jihatdan asarda o'zining yorqin ifodasini topgan.

So'roq olmoshlari yordamida ham so'roq gaplar tuzilgan gaplar asarda ko'plab uchraydixaxs va narsalar haqida fikr yuritilganda kim, nima olmoshlari qo'llaniladi. Masalan, Yosh narsalarga qarilarni aralashtirib nima bor? (Ch.) bu gap orqali birorta sabab ko'rsatishi talab qilingan. Nima olmoshi bilan ifodalangan.

Predmetlarning belgi xususiyatlarini aniqlash lozim bo'lgan so'roq gaplarda qanday, qaysi, qancha, necha, qayer, olmoshlari ishtirok etadi. Otamning piriday kap-katta sallalik domla o'tiribdilar. Qanday yuzim bilan qarayman? (Ch.)

So'roq gaplarning hamma turida o'ziga xos intonatsiya bo'ladi. Bu intonatsiya darak, undov, gaplarning intonatsiyasidan tamoman farqlanib turadi. Odatda, so'roq gaplarda biror narsa, yoki uning belgisi, harakatining bajarilish o'rni, payti, holati, sababi, maqsadi so'raladi.

So'roq gaplarni tuzishda xizmat qilgan vositalar ayrim so'roq gaplarda bo'lmasligi ham mumkin. Bu xil so'roq gap so'roq intonatsiyasi yordami bilan tuzuladi va ko'pincha, suhbatdoshning so'zini takrorlash so'zi bilan hosil bo'ladi. Qayerda qolding. Noinsof? Meni yolg'iz tashlab? (Ch.) "Meni yolg'iz tashlab?" gapida hech qanday so'roq gapni bildiruvchi grammatik vosita yo'q, lekin unda so'roq ohangi bor. So'roq ohangi bilan aytilgani uchun so'roq gap hisoblanadi.

So'rash mazmuni ta'kidlangan so'roq gaplarda grammatik vositalar birdan ortiq bo'lishi ham mumkin. Masalan, Ichida qanday suv borligini bilarmidingiz? (Ch.) bu gapda qanday olmoshi va –mi so'roq yuklamasi ishtirok etgan. Bu hil gaplarda so'roq ma'nosi yanada kuchayadi. Bu so'roq gaplarning o'ziga hos uslubiyl hususiyatlardan biridir.

Badiiy asar yaratish borliqni badiiy o'brazlarda idrok etish va qayta yaratish jarayoni bo'lib, san'atkor zimmasiga umumxalq tili boylik va imkoniyatlaridan oqilona va unumli foydalanishi masulyatini yuklaydi. Zero, umumxalq tili fikrni rang-barang bo'yoq va shakllarda ifodalash imkoniyatini yaratuvchi bitmas-

tuganmas xazinaki, uning javoxirlaridan xar bir yozuvchi o'z kuzatuvchanlik qobilyati, falsafiy mushoxadasi va badiiy maxorati doirasi xamda darajasida foydalanadi.¹

Ijodkorning til sohasidagi san'atkorligi birinchi galda shunda namoyon bo'ladiki, u keng iste'moldagi so'z va iboralarni mohirona qo'llash bilan bir qatorda xalqning ilg'or, peshqadam vakili sifatida umumxalq tili boylik va imkoniyatlarini muntazam ravishda kengaytira boradi. O'z tili materiallari asosida yangi so'z va iboralar yaratadi, har xil diallektlarda va, umuman, og'zaki nutqda mavjud bo'lib, adabiy – yozma nutq boyligi hisoblanmaydigan ayrim leksik va frazeologik birliklarni umumxalq tiliga olib kiradi, til birliklarinio'zga sharoitlarda qo'llash yo'li bilan ulrga yangi ma'no va vazifalar yuklaydi.

Malumki, badiiy nutq kommunikativ va , shu bilan birga, estetik vazifani bajaradi. Badiiy uslubning boshqa uslublardan ajralib turadigan belgisi uning estetik vazifasi, obrazlilik va ekspressivligidir. Bu narsa uning sintatik qobig'ini ham bog'laydi. Bunda umumxalq tilining sintaktik imkoniyatlaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati muhimdir.

Badiiy asarda qo'llangan barcha so'zlar ham tasviriy vositalardir. Ana shu so'zlar vositasida yozuvchi asarning mazmunini, g'oyasini o'quvchilarga yekazib beradi, tasvirlanayotgan voqea hodisaga o'quvchining munosabatini o'rgatadi.

Badiiy asar yaratish borliqni badiiy o'brazlarda idrok etish va qayta yaratish jarayoni bo'lib, san'atkor zimmasiga umumxalq tili boylik va imkoniyatlaridan oqilona va unumli foydalanishi masulyatini yuklaydi. Zero, umumxalq tili fikrni rang-barang bo'yoq va shakllarda ifodalash imkoniyatini yaratuvchi bitmas-tuganmas xazinaki, uning javoxirlaridan xar bir yozuvchi o'z kuzatuvchanlik qobilyati, falsafiy mushoxadasi va badiiy maxorati doirasi xamda darajasida foydalanadi.¹

¹ Musayev Q “ Ayajonlarim” komediyasiga tiliga doir mulohazalar// O'TA,1984. 4 – son . 38 – bet

¹ Musayev Q “ Ayajonlarim” komediyasiga tiliga doir mulohazalar// O'TA,1984. 4 – son . 38 – bet

Ijodkorning til sohasidagi san'atkorligi birinchi galda shunda namoyon bo'ladiki, u keng iste'moldagi so'z va iboralarni mohirona qo'llash bilan bir qatorda xalqning ilg'or, peshqadam vakili sifatida umumxalq tili boylik va imkoniyatlarini muntazam ravishda kengaytira boradi. O'z tili materiallari asosida yangi so'z va iboralar yaratadi, har xil diallektlarda va, umuman, og'zaki nutqda mavjud bo'lib, adabiy – yozma nutq boyligi hisoblanmaydigan ayrim leksik va frazeologik birliklarni umumxalq tiliga olib kiradi, til birliklarini o'zga sharoitlarda qo'llash yo'li bilan ulrga yangi ma'no va vazifalar yuklaydi.

Malumki, badiiy nutq kommunikativ va , shu bilan birga, estetik vazifani bajaradi. Badiiy uslubning boshqa uslublardan ajralib turadigan belgisi uning estetik vazifasi, obrazlilik va ekspressivligidir. Bu narsa uning sintatik qobig'ini ham bog'laydi. Bunda umumxalq tilining sintaktik imkoniyatlaridan foydalanishning o'рни va ahamiyati muhimdir.

Badiiy asarda qo'llangan barcha so'zlar ham tasviriy vositalardir. Ana shu so'zlar vositasida yozuvchi asarning mazmunini, g'oyasini o'quvchilarga yekazib beradi, tasvirlanayotgan voqea hodisaga o'quvchining munosabatini o'rgatadi.

Adabiyotning boyligi ijodkorni voqelikni obrazli idrok etishi va ana shu obrazli idrok etilgan voqelini so'zlar vositasida o'zgalar hissiga, ruhiga va ongiga ta'sir ko'rsatadigan darajada qayta yaratishdan, jonlantirishdan iborat murakkab ruhiy, aqliy, shuuriy hodisadir. Har qanday badiiy asar tilida yozuvchining munosabati, so'z tanlashda va so'z qo'llashdagi o'ziga xosligi muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, *kim* olmoshi yordamida sof so'roq gap hamda ritorik so'roq gaplar hosil bo'ladi. Bunday gaplar tarkibida *kim* olmoshining vazifasi harakatning sub'ektini aniqlashdan iborat. Nutqsa *kim* olmoshli so'roq gaplarning yana shunday turlari uchraydiki, ular tarkibidagi so'roq olmoshi boshqa funksiyani bajaradi. Masalan, *Kimni ko'rlpman!* yoki *Kurashda kim kimni yiqitadi?*

A.Abdullaev o'z tadqiqotida: «Bolani kim sevmaydi» gapida logik urg'u oluvchi bo'lak kim(ega)dir. Bu gapning ekvivalenti (bu bolani hamma sevadi) da logik urg'u oluvchi bo'lak hamma(ega)dir. Bu tip gaplarda kuchaytirish gapning

sub'ektiga nisbatan bo'ladi. Bu gapda «bolani sevmaydigan hech kim yo'q» degan yashirin belgi -(hamma), «hamma sevadi» degan fikr kuchaytiriladi», - deb yozadi.¹

N.Mahmudov esa aynan shunday tuzilishdagi so'roq gapda presuppozitsiya tufayli shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik mavjudligini uqtiradi.²

Kim olmoshli so'roq gap prsdikati inkor shakliga ega bo'lganda, uning mazmuniy tuzilishidan darak-tasdiq axboroti presuppozitsiya orqali anglashiladi: *Bolani kim sevmaydi?*; *Yaxshi yashashni kim istamaydi!* Bunday gaplarning kesimi inkor shaklda bo'lsa, «hamma» (sub'ekt) kuchaytirilib, umumiy mazmun tasdiqni ifodalaydi. Agar gapning kesimi tasdiq shaklda bo'lsa, «hech kim» (sub'ekt) kuchaytirilib, gap inkor mazmunida bo'ladi». Bunday shakldagi gaplar ichki tuzilishidan darak-tasdiq, darak-inkor presuppozitsiyalari anglashiladi.

A.Abdullaev «Kim olmoshli ritorik so'roq gapda «hamma» yoki «hech kim» degan tushuncha kuchaytiriladi», deb ta'kidlaydi.¹ Dalillardan *kim* olmoshli ba'zi ritorik so'roq gaplarda buning aksi ro'y berishi mumkinligi tasdiqlandi. Chunki bu xildagi gaplarning mazmuniy tuzilishi murakkab bo'lib, undan anglashiladigan yashirin mazmun nutqiy aloqa-aralashuvda, matnda anglashiladi.

Masalan:

Bolaga kim qaraydi?

Ko'chani kim supuradi? (UX.) «Bolaga kim karaydi?» gapining mazmuniy tuzilishi murakkab, uning ichki tuzilishida «Bolaga qaramayman», «Bolaga qaraydigan hech kim yo'q», «Bolaga qara» tarzidagi axborotlar mavjud bo'lib, ularning qaysi biri haqida fikr yuritilayotganligi nutkda aniqlanadi.

Shuningdek, «Bolaga kim qaraydi? Men qaraymanmi? Qaramayman» tarzidagi gaplarda *kim* va *-mi* vositalari bilan shakllangan jumalardan «Qaramayman» presuppozitsiyasi anglatiladi. «Yashirin axborotning taxror

¹ FУЛОМОВ А., АСКАРОВА М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т.: Ўқитуғш, 1977, 57-62- бетлар.

² АХМЕДОВ А. Вопросительный предложенья современном узбекском *шике* // А>торефлис.канд.фмлол.наук. -Ташкент, 1965; ИСМАТУЛЛАЕВ Х Х Вуюш предложенья по иели —III в современном узбекском ашкс: Авторефлис.канд-филол.наук.-Ташкент. 1965; АБДУРАХМОНОВ Ф. Бу хакда каранп Ўзбек тили грамматикаси. Синтаксис.-Т., Фаи. 1976, 103-108-бетлар.

¹ АБДУЛЛАЕВ А. Шу жойла.

holatda eksplitsit ifodalanishi mazmushshng alohida ta'kid bilan kuchli ifodalanishiga xiyamat kiladi».² Shuning uchun «Bolaga kim karaydi?» gapi tasdiq-inkor, so'roq-darak, so'roq-buyruq, sodda-murakkablik bslgilariga ko'ra shakliy-mazmuniy nomuvofiqlikka ega.

«Ko'chani kim supuradi?» so'roq gapining mazmuniy tuzilishi murakkab bo'lib, unda ham bir nechta darak, buyruk presuppozitsiyalari anglashiladi. Undan «Ko'chani supur», «Ko'chani supurolmayman», «Ko'chani supurishga hech kim yo'q» singari qator presuppozitsiyalar anglashiladi, ya'ni ularning qaysi biri haqida fikr yuritilayotgani nutqsa ma'lum bo'ladi. Masalan:

«Aparaysa qilarmish! Aytishga oson. Aslida-u, har kimning joni xudoning omonati. Ertami-kechmi oladi omonatini. Boring, ana tig'ning tagidan omon-eson kutulib chikdi ham,... Bir yilgacha yarimjon bo'lib yuradimi? Ko'chani kim supuradi?...» (O'.H.).

Matndagi «Ko'chani kim supuradi?» gapining ichki tuzilishidan «Ko'chani supurolmayman» darak-inkor axboroti yashirin ifodalangan.

«Ma'lumki, *kim* olmoshli ritorik so'roq gap kesimi davom fe'li bilan ham ifodalanadi: - U yerda hech kim yo'qmi? - Kim bo'lar edi? (Oybek). Ayni shunday holatdagi gaplar «Hech kim yo'q» degan mazmunni anglatadi», deb hisoblaydi A.H.Sulaymonov. Kdyd etish lozim: muallif bu o'rinda *kim* olmoshli ritorik so'rok gapining *-mi* yuklamali sof so'rok gapga javob sifatida aytilishi sababiga ahamiyat bermagan. Yana shuni aytib o'tish joizki, ona tilimizda «Kim bo'lar edi?» gapining «Kim ham bo'lar edi» varianti qo'llanishi mumkin.

So'roq gap predikati *kim zdi*, *kim bo'libdi* kabi sintaktik birliklar bilan ifodalanganda, uning ichki tuzilishidan murakkab mazmun uqiladi. Bunday tuzilishdagi so'roq-tasdiq gapning ichki tuzilishidan yashirin darak-inkor axboroti ham anglapshladi:

1. Men o'zim kim edim? («Sharq yulduzi»)

² ЛУТФУЛЛАЕВА Д Тасдяк гапларда инислий-мазмуний номувофиклик. -Тошкент: Фан. 1997. 31-бет. " СУЛАЙМОНОВ АХ Ўтган замон фемлари//СУЛАЙМОНОВ А.. ХОЖИЕВ А.. ЖЎРАЕВА Ж Фегл замонлари. -Тошкент: Фан. 1962. 18-бет.

2. Duma kim bo‘pti? (O‘.Hoshimov, «Ikki eshik orasi»). Birinchi so‘roq-tasdiq gapning ichki tuzilishidan «Men (o‘zim)

hech kim emas edim» darak-inkor axboroti ifodalangan. Predikati kim bo‘libdi tuzilishidagi ikkinchi so‘roq gapda ham darak-inkor axboroti «Duma hech kim emas» presuppozitsiya orkdli anglashiladi. Mazkur gaplar tahlilidan predikati *kim zdi, kim bo‘libdi* tuzilishidagi so‘roq gaplarda darak-inkor presuppozitsiyasi bilan birga voqelikka nisbatan mensimaslik, norozilik ma’nolari ham mavjud ekanligi ayon bo‘ladi.

Tarkibida *kim* olmoshi bo‘lgan sintaktik kurulma sof so‘rok gapning javobi sifatida ham ko‘llanadi. Misollar keltiramiz: 1.-Nega yolg‘on gapirding?

- Kim yolg‘on gapiribdi, -dedim bo‘sh kelmay... (X.T.).

2.-Endi, ertaga mehmonlarni chaqirish yo‘qmi?

- Sultonxon o‘zi bo‘lmagandan keyin kim chakiradi? (Ch.).

Birinchi matndagi so‘roq harakatning bajarilish sababini aniqlashga qaratilgan bo‘lsa-da, tinglovchi bu so‘roqqa javob orqali voqelikni inkor etadi. «Kim yolg‘on gapiribdi?» gapining mazmuniy tuzilishidan «Yolg‘on gapirganim yo‘q» darak-inkor axboroti hamda so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan norozilik ma’nosi ifodalangan. Bundan mazkur gapning shakli va mazmuni tasdiq-inkor, so‘roq-darak, soddamurakkablik belgilariga ko‘ra nomuvofiqlikka ega, degan xulosaga kelish mumkin.

Ikkinchi misoldagi «Sultonxon o‘zi bo‘lmagandan keyin kim chaqiradi?» gapining mazmuniy tuzilishi bir muncha murakkab bo‘lib, undan «Sultonxonning o‘zi yo‘q» va «Hech kim chaqirmaydi» tarzidagi yashirin darak-inkor axborotlari ifodalangan. Mazkur gapning asosiy predikati (chaqiradi) bo‘lishli shaklda. Predikatning sub’ekti esa *kim* so‘roq olmoshi. Gapdedi asosiy axborot *kim chakiradi* qurilmasi orqali ifodalangan. Bu o‘rinda *kim* olmoshi harakatning sub’ekti vazifasini bajarmaydi, lekin «Hech kim chaqirmaydi» presuppozitsiyasiga ishora etadi. Bunday yashirin axborotning zohirlanishini gap tarkibidagi *kim* olmoshining logik urgu olganligi bilan izohlash mumkin. Asosiy axborotning

predikati, ya'ni *chakiradi* o'timli fyo'li bo'lib, u mazmunan anglashiladigan tushum kelishikli (mehmonni yoki mehmonlarni) so'zini boshkdrb kelgan. Gap tarknbidagi «Sultonxonning o'zi bo'lmagandan keyin» kismi esa yordamchi axborot rolini bajarib, asosiy predikatdagi harakatning bajarilmaslik sababini bildiradi va Nima uchun chakirmaydi? degan savoliga javob bo'ladi. Misol tahlilidan anglashiladiki, «Sultonxonning o'zi bo'magandan keyin kim chaqiradi?» gagsh tuzilishiga ko'ra sodda gap tarzida bo'lsa-da, ichki tuzilishidan «Sultonxonning o'zi bo'lmaganligi sababli, hech kim chaqirmaydi» tarzidagi sabab ergash gapli qo'shma gap ifodasiga teng axborot ifodalanadi. Aini shundai holat yuqorida keltirilgan ikkinchi gapning ham tasdiq-inkor, so'roq-darak, sodda-muraxkablikbsyagilariga ko'ra shakliy-mazmuniy nomuvofiklikka ega ekanligyni to'la tasdiqlaydi.

Kim olmoshli so'roq gapning asosiy predikati aniqlik mayli yoki buyruq-istak maylidagi fe'l bilan ifodalanishi mumkin. Ikkinchi darajali predikatsiya hisobiga anglashiladigan yashirin axborot darak-tasdiq xarakterida qismni bildirsa, darak-inkor xarakteridagi asosiy axborot presuppozitsiya orqali uqilib, butun ma'nosi reallashtiriladi. Bunday tuzilishdagi so'roq gaplarda zidlanayotgan a'zolar olmoshga mansubdir. Masalan:

- Dardini menga aytmay kimga aytadi? (So'zlashuvdan)

- Sizga unamay kimga unaydi? («Sharq yulduzi») Misollardan *kim* olmoshi qaysi kelishikda kelsa, unga zid

a'zo ham shu kelishikda ko'llanishi ko'rinib turibdi. Gap tarkibidagi ikkinchi darajali bo'lak har ikkala yashirin axborot uchun ham umumiy hisoblanadi. So'roq-tasdiq shaklidagi «Dardini menga aytmay kimga antadi?» gapidagi asosiy axborot «Dardini hech

kymga aytmaydi» ggrssugshozitsiya orkali, yordamchi axborot esa ikkinchi darajali prsdikatsiya, ya'ni «Dardini menga aytmay» kismidan anglashiladi, natijada «Dardini menga aytadi» presuppozitsiyasiga ishora etiladi.

Bu misollar tahlilida yana quyidagi holatlarni ta'kidlash mumkin: «Dardini menga aytmay kimga aytadi?» jumlasida sodda gap tuzilishida bo'lsa-da, mazmunan murakkab bo'lib, «Dardini sizga aytmasa ham menga aytadi», «Dardini hech kimga aytmasa ham menga aytadi» sintaktik kurilmalari bilan mazmuniy paradigmani hosil etadi. Yashirin axborotlar tarkibidagi *dardini* to'ldiruvchisi hamda har ikkala axborotning sub'ekti (u) umumiydir. «Menga aytadi», «Hech kimga aytmaydi» axborotlari tuzilishiga ko'ra bir tarkibli gap turiga mansub. Sub'ektning umumiyligi har ikkala axborot alokasining mazmuniy jihatdan benihoya zich bo'lishini taqozo etadi.

Butun va qism munosabatlari «Sizga unumay kimga unaydi?» tarzidagi gaplarda ham mavjuts. Bu xildagi gaplarning ichki tuzilishidan anglashiladigan yashirin mazmun «Sizdan bopgga kimga unaydi?» sintaktik birligidan uqiladigan presuppozitsiya orqali tushuniladigan mazmun bilan bir xil. Gap tarkibidagi *-dan boshka* konstruksiyasi orqali ifodalangan axborot kism, *kim* so'roq olmoshli qismdan esa umum ma'nosi anglashiladi. Binobarin, bu o'rinda «qism umumga zid qo'yiladi».

Tahlil etilgan so'roq gaplar tarkibida yashirin darak axboroti hamda gapdan anglashiladigan vokelikka ishonch ma'nosi ifodalanadi.

Nima olmoshli so'roq gaplar faqat biror narsa-predmet yoki voqea-hodisa haqida emas, balki harakat, uning bajarilish sababi, maqsadi va hokazolar to'g'risida ham so'roq bildiradi.

Aslini olganda, *nima* olmoshli bunday so'roq gap sof so'roq gap hisoblanadi.

Nutqda *nima* olmoshi ishtirok etgan «...nima keragi bor?», «...nima foydaei bor?», «...-da nima bor?», «...nima qilaman//...nima qilasan // ...nima qiladi?», «...nima qiladi unda?», «...-ga nima bor?», «...-ga nima?» kabi turg'un birlikli so'roq gaplar qo'llanadiki, ularning mazmuniy tuzilishidan darak-inkor, buyruq-inkor xarakteridagi axborotlar presuppozitsiya orqali anglapshladi.

Nima olmoshi bilan shakllangan so'roq-tasdiq gaplarning ichki tuzilishidan darak-inkor presuppozitsiyasi anglashiladi. Masalan, *Nimani yashiribmiz!* (X.T.)

gapining ichki tuzilishidan «Hech nimani yashirganimiz yo‘q» yashirin darak-inkor axboroti ifodalangan. *Nimani yashiribmiz!* gapining predikati bo‘lishli shaklda bo‘lsa-da, uning mazmuniy tuzilishida darak-inkor presuppozitsiyasi anglashilgani uchun yashirin darak-inkor axboroti o‘z ifodasini topgan. Anglashiladiki, mazkur gapning shakli va mazmuni o‘rtasidagi nomuvofiqlik tasdiq-inkor, so‘roq-darak, sodda-murakkablik belgilariga ko‘ra yuzaga kelgan. Ayni shunday shakliy-mazmuniy nomuvofiqlikni «Ashurali esa nimasiga uylanadi?» (J.A.) gapida ham kuzatish mumkin. Bu sintaktik birlikda «Ashuralining uylanish uchun puli yo‘q» presuppozitsiyasi mavjud bo‘lib, u matn qurshovida yanada oydinlashadi:

Tengqurlari esa elga osh bermokda, to‘y-tomosha o‘tkazib, xotinli bo‘lmokda. Ashurali esa nimasiga uylanadi? Unga pul kerak, juda ko‘p pul kerak (J. A.). Matndagi so‘roq-tasdiq gapning mazmuniy tuzilishidan darak-inkor axboroti yashirin anglashilayotgannni payqash qiyin emas. Mazkur so‘roq-tasdiq gapning shakli va mazmunida tasdiq-inkor, so‘roq-darak, sodda-murakkab belgilariga ko‘ra nomuvofiqlik yuzaga keltan.

Ritorik so‘roq gap tarkibidagi *nima* olmoshi biror harakat yoki belgi xusueiyatni, sub’ekt, harakat ob’ektini aniqlash uchun ko‘llansa, gapda u mazmunan yashirin axborotdagi *hech nima* olmoshi bilan yaqinlashadi. *Nima* olmoshli gap sub’ekt yoki ob’ektning atributiv belgisini aniqlash maqsadida qo‘llanganda esa u yashirin axborotdagi *hech kanday* olmoshiga muvofiq kelishi mumkin.

Shuningdek, quyidagi so‘roq-tasdiq gaplarda ham darak-inkor xarakteridagi yashirin axborot mavjudligini anglash kiyin emas? Haq gapga *nima* deyman? (Ch.) -Haq gapga *hech nima* demayman.

Nima g‘aming bor? (So‘zlashuvdan) - *Hech kanday* g‘aming yo‘q.

Yana shuni aytib o‘tish joizki, so‘roq gap tarkibidagi *nima* olmoshi yashirin axborotdagi bo‘lishsizlik olmoshiga hamma vaqt ham muvofiq kelavermaydi. Masalan, so‘zlapguvda «Mening nimamdan xafa bo‘lasan?» gapi ham bot-bot

ko‘llanadiki, uning ichki tuzilishidan «Mendan xafa bo‘lma» ob‘ektiv mazmuni anglashiladi. Mazkur so‘roq gap «Mening go‘rimdan xafa bo‘lasanmi?» gapi bilan sintaktik sinonimiyani hosil etadi.

Ritorik so‘roq gap tarkibidagi *nima* olmoshi darak-tasdik xarakteridagi yashirin axborotda *hamma narsa* leksik birligiga muvofiq kelishi mumkinligi ham kuzatiladi. Masalan, shunda yana ko‘rkib to‘xtadim: bu kimsasiz uyning biqinida yoki taktaxonasida nima yo‘q deysiz? (Sh.X.).

Mazkur matn tarkibidagi *nima yo‘q* konstruksiyali gapning ichki tuzilishidan «...bu kimsasiz uyning biqinida yoki taktaxonasida hamma narsa bor» darak-tasdiq axbroti anglashiladi.

Ayrim ritorik soroq gaplardan so‘ng unga javob bo‘la oladigan gaplar ham keladi. Bunday gaplar ritorik so‘roq gaplarga aynan javob tarzida bo‘lmasa-da, mazmunan ularning yakuni ekanligi bilinib turadi. Masalan: 1. -Odamlarga ishonma, dedim-ku. Bu odamlar tegirmonchi Shamsiddinni ham yaxshi qoshiqchi, deb er-ko‘kka sig‘dirmay maqtaydilar. Ovozini eshitgandirsan? Eshak hangrasa undan a‘lo. (Ch.) 2. Bilmadim, bu poezd meni qayerga olib boradi? Qrimga deb yo‘lga chiqdim. Biletlar Moskvagacha. U erda nima bo‘ladi? Ungacha nima bo‘ladi? Bilmayman. Bilmayman. Nima uchun bu safarga chiqqanimni ham bilmayman. (Ch.)

Keltirilgan birinchi misolda ritorik so‘roq gap (ovozini eshitgandirsan?) shunchaki gap orasida kelganligi sezilib tiribdi. U qahramon (mingboshi) nutqida qo‘llanib, tinglovchiga (M.) qaratilgan. Garchi ritorik so‘roq gaplarda javob talab qilinmasa-da bu o‘rinda so‘roqning ortidan xuddi uning javobi kabi bir gap ishlatilgan: Eshak hangrasa undan a‘lo. Ishlatilgan ritorik so‘roq (eshitgandirsan?) orqali kinoya, piching ma‘nolari ifoda etilgan. Kinoya ma‘nosini kushaytirish uchun undan so‘ng qiyos, o‘xshatish bildiruvchi gap qo‘langan va mana shu gap fukrga yakun yasagan.

Keltirilgan ikkinchi misolda esa ritorik so‘roq gaplarning bir nechitasi ishlatilgan bo‘lib, ular qahramon ichki dunyosini ochib berishga yordam bergan. Mazkur nutq parchasidan qahramon ruhiyatida bir-biriga qarama-qarshi o‘ylar azob

berayotganini sezib olish qiyin emas. Inson ruhiyatida kechayotgan mana shunday ziddiyatlarni ko'rsatib berishda ritoirik so'roq gaplar uslubiy vosita sifatida yordam bergan.

So'roq gaplarni tuzishda xizmat qilgan vositalar ayrim so'roq gaplarda bo'lmasligi ham mumkin. Bu xil so'roq gap so'roq intonatsiyasi yordami bilan tuzuladi va ko'pincha, suhbatdoshning so'zini takrorlash so'zi bilan hosil bo'ladi. Qayerda qolding. Noinsof? Meni yolg'iz tashlab? (Ch.) "Meni yolg'iz tashlab?" gapida hech qanday so'roq gapni bildiruvchi grammatik vosita yo'q, lekin unda so'roq ohangi bor. So'roq ohangi bilan aytilgani uchun so'roq gap hisoblanadi.

. – mi so'roq yuklamasi hosil qilingan ritorik so'roq gaplar qahramon ichki kechinmalarini ifodalaydi: Qorong'I qish kunlaridan qolgan dog'Lar, to'rt devor orasida yshashdan kelgan siqindilar, otlardan o'tgan zulmlar, sovchilardan yetgan tashvishlar barham yetmaganmidi?(Ch.). Bu ritorik so'roq gap orqali zorlanish, norozilik qiyofasi aks etgan ma'no ifodalangan. Bu gapdagi har bir so'z o'zining darajasi bilan boshqa gaplardan farq qiladi. Cho'lpon shu gap orqali o'sha zamondagi ijtimoiy hayotini ham qalamga olib o'tgan. O'sha davrdagi qish kunlari, otalarining zulmari ostida yosh qizlarni erta turmushga berishlari haqida Cho'lpon mahorat bilan ritorik gap orqali bergan. Bundan tashqari, bu gap orqali otalarining zulmlari, sovchilarning tashvishlari ta'kidlangan bo'lishi ham mumkin.

Ritorik so'roq gaplarda turli ma'nolar: kinoya, takid, norozilik, achinish, tanbeh, sevinch, kesatish kabilar ifodalanadi. Biz buni yuqoridagi ritorik so'roq gaplar orqali ko'rib chiqdik.

Bundan tashqari, so'roq gaplar so'roq yo'li bilan bildirilgan hayrat, taajub, hayajon, buyruq, gumon kabi ma'nolarni ham ifodalashi mumkin: 1. – Marg'ulondan topilmagan najot Toshkentdan topilsinmi, - dedi. (Ch.). 2. Otabek changib, shoshib so'radi: - Qaysi qiziga unashib keldingiz? 3. – Nimabalo, kuyaving ko'rksiz-mi?

Keltirilgan birinchi misolda xavotir, ikkinchi misolda hayajon, uchinchi misolda esa achinish kabi ma'nolar ifodalangan.

Badiiy adabiyotda nutqning ta'sirchanligini oshirish uchun so'zlovchining o'ziga o'zi savol berish usulidan keng foydalaniladi. Masalan: - Hasanali otam sog'mi, nega siz bilan kelmadi? – Shukur, sog' ba'zi ishlar bilan bo'lib kelolmadi, - bu javobni berish hamono ko'nglidan kechdi: Nega yolg'on gapirasan, Hasanali to'y harakatlari bilan mashg'ul emasmi?...” (Ch.)

Ba'zan so'roq gaplar javobi bilan shunday birikib ketadiki, ularni so'roq va javobga ajratish sun'iylikka olib keladi. Masalan: - Nega man yolg'iz qizimni Toshkentga yuboray – dedi ko'zini olalantirib, - biz qizimizni berishda Marg'ulondan tashqarig'a olib ketmas va'dasi bilan bersangiz.(Ch.).

Bunday so'roq gaplar badiiy nutqda juda ko'p uchraydi. Ular fikrning aniq va ta'sirchan bo'lishiga xizmat qiladi. Yuqoridagi keltirilgan misolda Oftob oyimning Mirkarim qutadorning Kumushni Toshkentga yuborish haqidagi fikriga munosabati aks etadi. Ushbu so'roq gap o'z javobi bilan birikib ketgan va unda ham g'azab, ham qo'rquv, ham ta'kid ma'nolari uyg'unlashib keladi.

So'roq gaplar turli-tuman ma'nolarni, his-tuyg'ularni va so'zlovchining voqelikka bo'lgan turlicha munosabatini ifodalaydi. Shunga ko'ra so'roq gaplar ikki turga bo'linadi: sof so'roq gaplar va ritorik so'roq gaplar.¹

Sof so'roq gaplarda so'zlovchi o'zi uchun noma'lum bo'lgan shaxs yoki voqea-xodisa haqida ma'lumot olishni maqsad qilib qo'yadi. Bu tip so'roq gaplarga albatta, javob talab qilinadi;

1. – Endi nima qilmoqchisiz?

- Nima qilar edim, - dedi qutidor, endi hamma ihtiyorni o'z qo'liga olib qoyg'on edi, - Otabek ko'nmaganda ham ko'ndirib, o'zim birgalashib Tashkand tushaman...(Ch.)

2. Qo'shbegi biroz o'ylab olib yana savol berdi:

- Marg'ilonda kimlarni taniysiz?

- M arg'ilonda uch-to'rt kishidan boshqa odam tanimayman.(Ch.)

¹ Hozirga o'zbek adabiy tili. II qism. Sintaksis. – T., 1966. – B.

Ritorik so'roq gaplar javob talab qilinmaydigan, mazmunidan javobi anglashib turadigan gaplardir. Bu hil so'roq gaplarning mazmunidan tasdig', habar mazmuni anglanib turadi, shu sababli ritorik so'roq gaplar emotsional ma'nolarni ifodalash uchun semantic vosita bo'lib xizmat qiladi: Negaki men o'zimning suygani va muhabbat qo'ygan erimdan buncha uyatsizlik, bu yanglig' vafosizlik ko'rdim. Endi er degan shu bo'ldimi?(Ch).

Ritorik so'roq gaplar badiiy asarda qahramon ruhiy holatini ochib beruvchi, ruhiy kechinmalarini bayon qiluvchi vositalardan biridir. Ritorik so'roq gaplarda kinoya, taajub, zorlanish, norozilik, achinish, shodlik, sevinch kabi turli emotsional ottenkalar ifodalanadi: 1. – Dunyoda bunday kuy yo'q deb o'ylaysizmi? Siz eshitmagan bo'lsangiz mening eshitkanim bor.(Ch). 2. Sizni hiylakor dedim: esingizda bormi, sodda otamni, go'l onamni qandog'lar qilib oldingiz? (165).

3. O'zing ayt, agar menga shu kasalligingni bir og'iz bildirsang, men qayin otangg'a xat yozmasmi edim, Xasanalini yuborib xaqiqatni ochmasmidim va bu taqdirda odam o'ldirib yurishlarga qanday hojat qolar edi? (Ch). 4. Umrining eng qiymatlik kunlarini og'ulagan, ikki yil bo'yi davosiz darga muftalo qilg'an, yaramas va ishonchsiz yo'llarda sanqishiga sabab bo'lg'an o'z onasi emasmi? (Ch.) 5. Ammo qizig'I shundaki, bizni dunyo baxti kutganda, bizga saodat bashorati berilganda nega biz o'lim kutgandagi holga tushamiz va uzviy tashkilotimiz birinchidagi xolatni kechiradi? (Ch.)

Yuqorida turli xil emotsional ma'nolarni ifodalovchi bir necha misol keltirdik. Keltirilgan birinchi misolda ritorik so'roq gap ta'kidlash ma'nosini bildirib kelgan. Ikkinchi misolda g'azab, kesatish ma'nolarini ifodalagan. Uchinchi misolda zorlanish afsuslanish ma'nolarini ifodalagan. Keltirilgan to'rtinchi misolda esa g'azab hayajon ma'nosini, beshinchi misolda esa ajablanish va taajub ma'nolarini ifodalagan.

XULOSA

So'roq gaplarning mazmuniy shakllanishini o'rganish ularning yashirin ma'no komponentlarini aniqlashga imkon beradi. Bunday gaplarning mazmuniy

tuzilishini o'rganish sof so'roq ma'noli gaplarda so'zlovchining kommunikativ maqsadi so'roqqa tinglovchidan muayyan javob olish, ritorik so'roq gaplarda esa yashirin tarzda darak, buyruq ma'nolarini ifodalash masalasiga oydinlik kiritadi. Misollarni tahlil qilish natijasi shuni ko'rsatdiki, ritorik so'roq gap vazifasida kelgan gaplarda darak, buyruq ma'nolari ham ifodalanadi. Bunday axborotlar yashirin tarzda shu gapning ichki tuzilishidan anglashiladi. O'z navbatida, bunday yashirin axborotlar ayni gapning mazmuniy tuzilishini murakkablashtiradi. Chunki so'roq gapning ichki tuzilishidan anglshilgan yashirin darak, buyruq axborotlari gapning tashqi tuzilishida aks etgan so'roq gapga mazmunan teng kelmaydi. Gapning tashqi tuzilishida ochiq ifodalanga axborot ham uning ichki tuzilishidan anglshilgan yashirin axborot darak-tasdiq, so'roq-darak, so'roq-buyruq, sodda- murakkablik munosabatlaridagi zid belgilariga ko'ra o'zaro farqlanadi. Yashirin tarzda darak, buyruq ifodalovchi bynday ritorik so'roq gaplar shakli va mazmuni darak-tasdiq, so'roq-darak, so'roq-buyruq, sodda- murakkablik belgilari jihatidan nomuvofiq bo'ladi.

Leksik-grammatik vositalar va maxsus ohang yordamida tuzilgan ritorik so'roq gaplarning uslubiy xususiyatlarini o'rganish asosida bu turdagi gaplarda so'zlovchining kommunikativ niyati voqeani bayon etish yoki harakatni bajarishga undash, buyurish bo'lib, ular konnotativ ma'nolarga ega ekanligi bilan ajralib turadi.